



Political pluralism and the development of electoral culture among youth

Sharaf AGABAEV¹

Uzbekistan State World Languages University

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2025

Received in revised form

15 October 2025

Accepted 15 November 2025

Available online

05 December 2025

Keywords:

political pluralism,
youth participation,
elections,
political inclusion,
democratic institutions,
political socialization,
political activity,
political parties,
political modernization,
Uzbekistan's experience.

ABSTRACT

This article provides a comprehensive analysis of the role of political pluralism in enhancing the political engagement of young people. It substantiates the importance of the electoral institution in a democratic society, particularly its role in the political socialization of the younger generation. The author reveals the ideological and institutional advantages of political pluralism and examines the reforms being implemented in Uzbekistan in this area, along with the opportunities they create for youth. In addition, a comparative analysis is conducted based on global trends and the experience of foreign countries of the factors that hinder young people's political participation. The article proposes scientifically grounded recommendations aimed at strengthening political inclusion policies for youth.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss6-pp90-97>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Siyosiy plyuralizm va yoshlarda saylov madaniyatining rivojlanishi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

siyosiy plyuralizm,
yoshlar ishtiroki,
saylovlar,
siyosiy inklyuziya,
demokratik institutlar,
siyosiy ijtimoiylashuv,
siyosiy faollik,
siyosiy partiyalar,
siyosiy modernizatsiya,
O'zbekiston tajribasi.

Mazkur maqolada siyosiy plyuralizmning yoshlar siyosiy faolligini oshirishdagi o'rni har tomonlama tahlil qilinadi. Saylovlar institutining demokratik jamiyatdagi ahamiyati, ayniqsa, yosh avlodning siyosiy ijtimoiylashuvida tutgan o'rni asoslab beriladi. Muallif siyosiy plyuralizmning mafkuraviy va institutsional afzalliklarini ochib beradi, O'zbekistonda ushbu yo'nalishda olib borilayotgan islohotlar va ular orqali yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlarni tahlil qiladi. Shuningdek, yoshlarning siyosiy ishtirokiga to'sqinlik qilayotgan omillar,

¹ Associate Professor, Department of Political Sciences, Uzbekistan State World Languages University.
E-mail: sharofagabaev@gmail.com

global tendensiyalar va xorijiy davlatlar tajribasi asosida qiyosiy tahlil yuritiladi. Maqolada yoshlarga oid siyosiy inklyuziya siyosatini kuchaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ilgari suriladi.

Политический плюрализм и развитие избирательной культуры у молодежи

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

политический плюрализм, участие молодежи, выборы, политическая инклюзия, демократические институты, политическая социализация, политическая активность, политические партии, политическая модернизация, опыт Узбекистана.

В настоящей статье всесторонне анализируется роль политического плюрализма в повышении политической активности молодежи. Обосновывается значение института выборов в демократическом обществе, особенно в контексте участия молодого поколения и его политической социализации. Автор раскрывает идеологические и институциональные преимущества политического плюрализма, рассматривает реформы, проводимые в Узбекистане в данном направлении, и анализирует создаваемые через них возможности для молодежи. Кроме того, на основе глобальных тенденций и зарубежного опыта проводится сравнительный анализ факторов, препятствующих политическому участию молодежи. В статье выдвигаются научно обоснованные рекомендации по усилению политики политической инклюзии в отношении молодежи.

Har qanday demokratik jamiyatda saylov jarayoni nafaqat davlat boshqaruvining shaklini belgilovchi konstitutsiyaviy mexanizm, balki fuqarolarning siyosiy faolligi, ijtimoiy javobgarligi va siyosiy ongi namoyon bo'ladigan institutsional maydon sifatida ham qaraladi. Saylovlar – bu fuqarolik jamiyatining o'zini ifoda etish vositasi bo'lib, ayniqsa, yosh avlod uchun siyosiy ijtimoiylashuvning dastlabki va eng muhim bosqichidir. Ushbu qatlamning saylovlardagi faolligi nafaqat hozirgi siyosiy barqarorlik, balki uzoq muddatli demokratik rivojlanish uchun ham hal qiluvchi omil hisoblanadi. Saylov jarayoni nafaqat davlat hokimiyatini shakllantirish vositasi, balki siyosiy tarbiya, fuqarolik mas'uliyati va siyosiy madaniyatni rivojlantiruvchi ijtimoiy institut sifatida ham qaralishi zarur. Ayniqsa, yoshlar – bu maktabning eng faol va innovatsion qatlamidir. Ularni siyosiy hayotga jalb etish orqali siyosiy tizim yangilanadi, ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanadi va demokratik institutlar rivoj topadi.

Yoshlarning siyosiy ishtirokiga oid dolzarb muammolar xalqaro tashkilotlar tomonidan ham e'tirof etilmoqda. Jumladan, YuNESKO tomonidan 2021-yilda taqdim etilgan global tahlilda yoshlarning siyosiy jarayonlardagi faollik darajasining pastligi, ularning siyosiy institutlarga nisbatan ishonchi sustligi, siyosiy jarayonlarning samarasizligi haqidagi tasavvurlari, shuningdek, o'z ovozinig ahamiyatiga bo'lgan ishonchsizlik bilan izohlanadi [1]. Bu holat demokratik tizimda siyosiy inklyuziya masalasiga chuqur e'tibor qaratishni talab etadi.

Bugungi globallashuv sharoitida yosh avlodning siyosiy ishtirokini faollashtirish – bu shunchaki taktik vazifa emas, balki strategik ustuvorlikdir. Chunki aynan yoshlar innovatsion fikrlash, raqamli kommunikatsiya vositalaridan faol foydalanish va fuqarolik

faolligiga moyilligi bilan ajralib turadi. Bu esa, yoshlarning siyosiy hayotga to'laqonli qo'shilishi va demokratiya sifatini oshirish, siyosiy muvozanatni saqlash va legitimlikni mustahkamlash uchun zaruriy shartlardan biri hisoblanadi.

Ushbu vazifani amalga oshirishda siyosiy plyuralizm muhim rol o'ynaydi. Chunki plyuralistik tizim – bu turli mafkuraviy yo'nalishlar, siyosiy partiyalar va ijtimoiy guruhlarining o'zaro erkin raqobati asosida shakllanadi. Bu esa yoshlar uchun o'zini tanlash, siyosiy pozitsiyasini aniqlash va muqobil yo'llar orqali siyosiy jarayonga kirib borish imkoniyatlarini yaratadi. Siyosiy plyuralizm aynan shunday inklyuziv sharoitni ta'minlovchi mexanizm sifatida demokratik tizimlarning barqarorligi va ochiqqligini kafolatlaydi [2].

O'zbekiston tajribasida ham so'nggi yillarda aynan siyosiy plyuralizmni kuchaytirish orqali yoshlarning siyosiy faolligini oshirishga yo'naltirilgan bir qator islohotlar amalga oshirildi. Saylov kodeksining qabul qilinishi, siyosiy partiyalar uchun teng imkoniyatlar yaratish, yoshlar parlamenti va boshqa ijtimoiy institutlar faoliyatining kuchaytirilishi – bularning barchasi yoshlarning siyosiy hayotdagi ishtirokini tizimli tarzda rag'batlantirishga xizmat qilmoqda [3].

Siyosiy plyuralizm zamonaviy demokratik siyosiy tizimlarning ajralmas komponenti bo'lib, u jamiyatda turli siyosiy qarashlar, partiyalar, manfaatlar va fuqarolik guruhlarining erkin faoliyat yuritishini anglatadi. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, siyosiy hokimiyat va qarorlar yagona manbadan emas, balki ko'p tomonlama manfaatlar, ijtimoiy subyektlar va ularning o'zaro muvozanati asosida shakllanadi. Plyuralizm g'oyasi asosan liberal-demokratik an'analar bilan bog'liq bo'lib, u ijtimoiy xilma-xillikni inkor etmaydi, balki uni siyosiy tizimning tabiiy holati sifatida qabul qiladi. Robert A.Dahl tomonidan ishlab chiqilgan klassik nazariyaga ko'ra, plyuralistik jamiyatda "siyosiy kuchlar bir qo'lda jamlanmaydi, balki turli fuqarolik guruhleri o'rtasida taqsimlanadi va ularning har biri siyosiy jarayonga ta'sir o'tkaza oladi" [4].

Siyosiy plyuralizmning falsafiy asoslari G'arb siyosiy tafakkurining klassik namoyandalari – Jon Lokk, Jan-Jak Russo va Jeyms Medison asarlarida o'z ifodasini topgan. Xususan, Jon Lokk o'zining mashhur "Two Treatises of Government" asarida shunday deydi: "Har bir fuqaro erkin fikr bildirish va hokimiyatni shakllantirishda ishtirok etish huquqiga egadir" [5]. Jeyms Medison esa siyosiy hokimiyatning taqsimoti orqali ijtimoiy guruhlar o'rtasida muvozanatni saqlash tarafdori bo'lgan. Uning fikricha, plyuralizm – jamiyatda siyosiy barqarorlikni ta'minlash vositasidir [6]. Robert Dahl esa o'zining "Poliarxiya" (1971) nomli fundamental asarida siyosiy ishtirok va muxolifat institutlarini demokratik tizimning tayanch omillari sifatida ko'rsatgan. Unga ko'ra, plyuralistik tizimda siyosiy raqobat va ijtimoiy subyektlarning teng ta'siri orqali siyosiy legitimlik ta'minlanadi.

Zamonaviy siyosiy tizimlarda plyuralizm yoshlar uchun siyosiy faollik maydonini kengaytiruvchi institutsional imkoniyatlar yaratadi. Chunki bu qatlam ko'pincha tajribasiz, biroq yangilikka intiluvchi, zamonaviy kommunikatsion texnologiyalar bilan integratsiyalashgan faol ijtimoiy guruhdir. Plyuralistik tizimlar aynan shu guruhni siyosiy hayotga keng jalb etish orqali demokratiyaning funkcionalligini kuchaytiradi. O'zbekistonda so'nggi yillarda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish borasida sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Jumladan, 2016-yil 14-sentyabrda qabul qilingan "Yoshlar siyosati to'g'risida"gi Qonun yoshlarning ijtimoiy-siyosiy hayotda ishtirok etishiga oid davlat kafolatlarini belgilab berdi [7].

Bundan tashqari, 2023–2024-yillardagi saylov jarayonlari yoshlarning saylovdagi faolligini ochiq namoyon etdi. Markaziy saylov komissiyasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilgi parlament saylovlarida 18–30 yosh oralig'idagi yosh saylovchilarning faollik ko'rsatkichi 68 foizni tashkil etdi [8]. Bu ko'rsatkichlar siyosiy plyuralizmning amalda yoshlar siyosiy faolligini rag'batlantiruvchi mexanizmga aylanganini ko'rsatadi. Turli partiyalar, nodavlat tashkilotlar va yoshlar ittifoqlari doirasida siyosiy inklyuziya vositalari – siyosiy forumlar, simulyatsiya o'yinlari, treninglar va elektron ishtirok platformalari faol ishlatila boshladi. Ayniqsa, raqamli demokratiya sharoitida yoshlar o'z fikrini nafaqat an'anaviy vositalar orqali, balki ijtimoiy tarmoqlar, elektron saylovlar va "onlayn petitsiya"lar orqali ham ifoda etmoqda.

Shunday qilib, siyosiy plyuralizm – bu nafaqat siyosiy institutlarning ko'plikda mavjud bo'lishi, balki jamiyatdagi barcha qatlamlarning, ayniqsa yoshlarning siyosiy jarayonga teng huquqli subyekt sifatida qo'shilish imkoniyatini kafolatlaydigan demokratik mexanizmdir. U orqali siyosiy qarorlar faqat yuqoridan emas, balki jamiyatning "pastdan yuqoriga" tamoyili asosida shakllanadi. O'zbekiston siyosiy tizimining bu boradagi islohiy yo'nalishi yoshlarning inklyuziv ishtirokini ta'minlash orqali demokratik institutlarni mustahkamlashda muhim qadamdir.

Zamonaviy demokratik tizimlarda siyosiy inklyuziya va fuqarolarning siyosiy faolligi siyosiy legitimlik hamda institutsional barqarorlikning poydevorini tashkil etadi. Shu nuqtayi nazardan, yoshlarning siyosiy hayotdagi ishtiroki alohida dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Ammo bugungi global siyosiy manzarada aynan yosh avlodning siyosiy jarayonlardagi sust ishtiroki ko'plab mamlakatlar uchun strategik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

2022-yilda Parlamentlararo ittifoq (Inter-Parliamentary Union (IPU)) tomonidan taqdim etilgan global tahlil natijalariga ko'ra, dunyo bo'yicha 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar parlament a'zolarining atigi 2,6 foizini tashkil etadi [9]. Ushbu ko'rsatkich yoshlarning siyosiy ishtiroki global miqyosda mutanosib emasligini yaqqol ko'rsatadi. Siyosiy institutlarga bo'lgan ishonchning pasayishi, siyosiy partiyalar tomonidan yoshlar manfaatlarining yetarlicha ifoda etilmasligi, saylov tizimlarining nomukammalligi va siyosiy ierarxiyaga kirishdagi strukturaviy to'siqlar – yoshlarning siyosiy passivligiga olib keluvchi asosiy omillar sirasiga kiradi. Bu holat ayniqsa siyosiy legitimlik va fuqarolik faolligi o'rtasidagi bog'liqlikni zaiflashtiradi.

Turli mamlakatlarda yoshlar uchun parlament kvotalari, maxsus siyosiy inklyuziya dasturlari, siyosiy treninglar va elektron ishtirok mexanizmlari joriy etilgan bo'lsa-da, ularning ko'pchiligi formal yoki deklarativ xarakter kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aksariyat yoshlar siyosiy faollikka tayyor bo'lishlariga qaramay, amaldagi institutsional sharoitlar ularning imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Bu esa siyosiy ijtimoiylashuv (socialization) jarayonining nomukammalligidan dalolat beraadi.

O'zbekiston tajribasi ham global tendensiyalarni aks ettiradi. 2021-yilgi Prezident saylovlarida 18–30 yosh oralig'idagi yosh saylovchilar jami elektoratning 33 foizini tashkil qilgan bo'lsa-da [10], ularning real siyosiy faollik ko'rsatkichi past bo'lgan. Markaziy saylov komissiyasi (MSK) va YXHT Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi (OSCE/ODIHR) tomonidan tayyorlangan monitoring hisobotlarida bu holat bir nechta omillar bilan izohlanadi [11]:

birinchidan, yoshlarning siyosiy madaniyati va siyosiy bilimlari yetarli darajada shakllanmagan; *ikkinchidan*, siyosiy partiyalar tomonidan yoshlar bilan ishlashga qaratilgan mazmunli dasturlar yetarli emas; *uchinchidan*, siyosiy elita va davlat boshqaruviga kirishdagi vertikal strukturalar hanuzgacha yopiq bo'lib qolmoqda.

Bundan tashqari, siyosiy yetakchilik lavozimlariga yoshlarning tayinlanishini rag'batlantiruvchi institutsional mexanizmlarning yo'qligi ularning siyosiy karerasi uchun real imkoniyatlarni cheklab qo'ymoqda. 2021–2025-yillarga mo'ljallangan “Yoshlar siyosatini rivojlantirish strategiyasi”da ushbu muammo tan olingan bo'lsa-da, uning amalga oshirilishi hozircha fragmentar, ya'ni yakkama-yakka loyihalar doirasida cheklanmoqda [12]. Demokratik institutlar doirasida yoshlarning to'laqonli siyosiy ishtirokini ta'minlash uchun ularning siyosiy savodxonligini oshirish, siyosiy partiyalarda yoshlar qanotlarini faollashtirish, siyosiy simulyatsiyalar va inklyuziv elektron platformalarni joriy etish dolzarb vazifa sifatida turibdi.

Ayniqsa, yoshlarning siyosiy ishtirokiga oid muammolarni faqat kvotalar orqali emas, balki tizimli institutsional islohotlar, siyosiy ijtimoiylashuvni chuqurlashtirish, yoshlarning siyosiy elita bilan muloqotini yo'lga qo'yish va ochiq siyosiy maydon yaratish orqali hal etish mumkin. Bunday yondashuv siyosiy plyuralizm tamoyillari asosida shakllanayotgan demokratiya uchun zaruriy shart bo'lib xizmat qiladi.

Siyosiy plyuralizm zamonaviy demokratik siyosiy tizimlarning asosi sifatida nafaqat siyosiy kuchlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi, balki jamiyatda har bir guruh, xususan, yoshlarning siyosiy ishtirokini rag'batlantiruvchi mexanizm sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Plyuralizmning mohiyati shundaki, siyosiy jarayonlar yakka hokimiyat yoki markazlashgan boshqaruvga emas, balki turli mafkuraviy, ijtimoiy va generatsion subyektlarning o'zaro muloqotiga, muvozanatiga va raqobatiga asoslanadi. Bunday tizimda ayniqsa yoshlarga yangi imkoniyatlar ochiladi – ular faqatgina tomoshabin emas, balki siyosiy ishtirokchi, tashabbuskor va hatto yetakchiga aylanadi.

Birinchidan, siyosiy plyuralizm yoshlar uchun mafkuraviy o'zligini shakllantirishga xizmat qiladigan muhitni yaratadi. Erkin siyosiy maydon mavjud bo'lgan jamiyatlarda yoshlar o'z qarashlariga mos siyosiy partiyalar, ijtimoiy harakatlar va liderlar atrofida jamlanib, o'zlarini siyosiy subyekt sifatida anglay boshlaydi. Bu jarayon siyosiy ijtimoiylashuvning chuqurlashuviga olib keladi. Masalan, AQShdagi *Sunrise Movement* ekologik adolat va iqlim siyosatiga oid masalalarni ilgari suruvchi yoshlar harakati bo'lib, senator B.Sanders atrofida shakllangan va aynan plyuralistik siyosiy sharoitda siyosiy mobilizatsiyaga erishgan. Bu harakat yoshlar tomonidan ilgari surilayotgan “Green New Deal” kabi tashabbuslarni siyosiy diskurs markaziga olib chiqishga muvaffaq bo'ldi [13].

Ikkinchidan, plyuralistik tizimda mavjud bo'lgan siyosiy raqobat yoshlar manfaatlariga e'tibor qaratishga majbur qiladi. Saylovlarda g'alaba qozonish istagidagi siyosiy partiyalar yoshlar segmentining ovozini jalb etish uchun maxsus strategiyalar ishlab chiqadi. Bu esa yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini – ta'lim, bandlik, raqamli imkoniyatlar, uy-joy siyosatini siyosiy kun tartibiga olib chiqadi. Masalan, Kanadada Liberal partiya 2019-yilda “Youth Engagement Strategy” dasturini ishlab chiqdi. Ushbu dastur natijasida 18–25 yoshli saylovchilar faolligi 11 foizga oshgan [14]. Strategiya yoshlar bilan bevosita muloqot, ularning raqamli maydondagi faolligini hisobga olish, siyosiy trening va motivatsiyani o'z ichiga olgan.

Uchinchidan, plyuralistik siyosiy tuzumlar siyosiy elita tarkibining yangilanishini ta'minlovchi muhitdir. U siyosiy ijtimoiylashuv jarayonini tezlashtirib, yoshlarni real siyosiy platformalarda ko'rinishga olib chiqadi. Siyosiy ierarxiyaga kirishdagi ochiqlik, teng raqobat, yoshlar qanotlarining faoliyati va siyosiy inklyuziya institutsiyalari orqali yosh liderlarning shakllanishi tezlashadi. So'nggi yillarda Finlyandiya [15] (Sanna Marin, Bosh vazir bo'lganida 34 yoshda), Estoniya (Kaja Kallas), Ukraina (Volodimir Zelenskiy)

va Chili (Gabriel Boric) tajribalari buni tasdiqlaydi. Ularning siyosiy sahnaga chiqishi ortida aynan yoshlar ommasining yuqori faolligi va plyuralistik siyosiy madaniyat yotadi [16].

Ushbu jarayon faqat individual yetakchilik emas, balki yangi siyosiy madaniyatning shakllanishiga olib keladi. Yosh liderlar orqali siyosiy kommunikatsiya tili, kun tartibi va islohotlar uslubi yangilanadi. Bu demokratik legitimlikni mustahkamlash, siyosiy islohotlarning tezligi va chuqurligini oshirish bilan yakunlanadi. Natijada siyosiy tizimning ochiqligi va moslashuvchanligi ortadi hamda siyosiy plyuralizm yoshlarning siyosiy faolligi uchun zarur bo'lgan mafkuraviy, institutsional va kommunikativ sharoitni yaratadi. U nafaqat yoshlarning ovozini siyosiy jarayonga olib kiradi, balki ularni ushbu jarayonning muhim aktorlariga aylantiradi. Yangi O'zbekiston uchun bu model dolzarb bo'lib, siyosiy modernizatsiya va yoshlar siyosatini uyg'unlashtirish orqali jamiyatda demokratik madaniyatni mustahkamlash imkonini beradi. Shu jihatdan, siyosiy plyuralizm nafaqat erkinlik, balki siyosiy rivojlanishning muhim mexanizmidir.

O'zbekistonda so'nggi yillarda olib borilayotgan siyosiy-modernizatsion islohotlar jarayonida siyosiy plyuralizmni rivojlantirish va yoshlarni siyosiy tizimga inklyuziv tarzda jalb etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu yo'nalishdagi sa'y-harakatlar siyosiy islohotlarning markaziy komponentiga aylangan bo'lib, u demokratik institutlarni mustahkamlash, fuqarolik jamiyatini faollashtirish va avlodlararo siyosiy integratsiyani ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Eng avvalo, normativ-huquqiy bazaning takomillashtirilgani siyosiy plyuralizm uchun huquqiy kafolat yaratdi. Xususan, 2019-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining *Saylov kodeksi* barcha saylov jarayonlarini yagona huquqiy hujjat asosida tartibga soldi, siyosiy partiyalarning teng huquqliligini konstitutsiyaviy darajada kafolatlatdi va Markaziy saylov komissiyasiga mustaqil konstitutsiyaviy organ maqomi berildi [17]. Bu yangiliklar saylov tizimining institutsional ochiqligini ta'minlab, siyosiy jarayonlarda barcha siyosiy kuchlar va guruhlar uchun teng sharoitlar yaratishga xizmat qildi. Amaliy natijalar ham ushbu islohotlarning real samaradorligini ko'rsatadi. 2021-yilgi saylovlarda 30 mingdan ortiq milliy va xalqaro kuzatuvchilar ishtirok etdi, bu esa saylovlarning oshkoralik va ishonchlilik darajasini oshirdi [18]. Saylovchilarning umumiy faolligi bilan bir qatorda, ayniqsa, 18–30 yosh oralig'idagi qatlamning ovoz berishdagi ishtiroki va fuqarolik pozitsiyasi kuchayganini ham ko'rishimiz mumkin.

Yoshlar uchun siyosiy ishtirokni rag'batlantirish borasida bir qator maxsus mexanizmlar joriy etilgan. Jumladan, "Yoshlar parlamenti" instituti tashkil etilib, u orqali yoshlarning qonunchilik va siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlarida ishtiroki ta'minlanmoqda. Bu institut parlament demokratiyasi doirasida yoshlarning ovozini eshitishga yo'naltirilgan muhim maydonga aylandi [19].

Shuningdek, "Yoshlar – kelajagimiz", "Yoshlar daftari" va "Yoshlar siyosati konsepsiyasi" kabi milliy dasturlar orqali yoshlarning nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy muammolari hal etilmoqda, balki ularning siyosiy faolligi ham rag'batlantirilmoqda. Ushbu dasturlar yoshlarning jamiyatdagi rolini kuchaytirishga qaratilgan strategik harakatlar rejasidir [20]. Amalga oshirilayotgan islohotlarning yana bir muhim jihati – barcha siyosiy partiyalarning saylovoldi dasturlarida yoshlar masalalariga oid alohida bo'limlarning kiritilishi bo'ldi. Bu esa yoshlarning siyosiy elektorat sifatida tan olinishi va ularning manfaatlarini aks ettirishga bo'lgan siyosiy ehtiyojning kuchayganidan dalolat beradi. Siyosiy partiyalar tomonidan yoshlarning bandligi, ta'limi, innovatsion

tashabbuslari, raqamli imkoniyatlarga kirish darajasi va uy-joy masalalariga oid rejalarning bayon etilishi, yosh avlodni real siyosiy subyekt sifatida tan olishning belgisi bo'ldi.

Siyosiy plyuralizm zamonaviy demokratik tizimlarda yoshlarning siyosiy jarayonlarga jalb etilishini ta'minlaydigan muhim institutsional va mafkuraviy omil sifatida namoyon bo'lmoqda. U faqatgina siyosiy kuchlar o'rtasidagi muvozanat vositasi emas, balki fuqarolik jamiyatining barcha qatlamlari, ayniqsa, yosh avlodning siyosiy faolligini shakllantiruvchi mexanizm sifatida ham qaralishi lozim. Plyuralistik siyosiy muhiti mavjud bo'lgan jamiyatlarda yoshlar o'zini siyosiy subyekt sifatida anglab, real siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylanadi. Ular erkin ideologik tanlov asosida siyosiy partiyalar va harakatlarga qo'shiladi, ularning faoliyatida ishtirok etadi va o'z qarashlarini siyosiy platformalarda ilgari surish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa nafaqat yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvi uchun, balki siyosiy tizimning legalligi va barqarorligi uchun ham zarur hisoblanadi.

Shu bilan birga, siyosiy partiyalar ham yoshlar ovozi uchun raqobatga kirishar ekan, ularning manfaatlarini siyosiy kun tartibiga olib chiqishga majbur bo'ladi. Ta'lim, bandlik, raqamli imkoniyatlar, atrof-muhit muhofazasi kabi dolzarb masalalar yoshlar ko'z o'ngida siyosiy mezonlarga aylanadi. Ushbu siyosiy jarayon ijtimoiy adolat va inklyuziyani ta'minlaydigan strategik platformaga aylanadi.

Yoshlar ishtiroki jamiyatda fuqarolik madaniyatini rivojlantiradi, siyosiy mas'uliyatni kuchaytiradi, shuningdek, siyosiy elitaning yangilanishini tezlashtiradi. Shu boisdan, siyosiy plyuralizmni faqat qonunchilik doirasidagina emas, balki amaliy siyosiy muhitda va ijtimoiy ongda ham mustahkamlash, uni siyosiy madaniyatning ajralmas qismiga aylantirish zarurdir.

Saylov jarayoni bu borada alohida o'rin tutadi. U faqat davlat idoralarining texnik faoliyati emas, balki fuqarolarning, ayniqsa yoshlarning siyosiy faolligini tarbiyalovchi ijtimoiy institutdir. Yoshlar esa bu ijtimoiy-siyosiy maktabning eng innovatsion va faollikka moyil qatlamidir. Ular orqali siyosiy tizim yangilanadi, legitimlik kuchayadi va jamiyatda ishonch muhitini shakllantirish imkoniyati oshadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda siyosiy plyuralizmning rivojlanishi faqat normativ darajada emas, balki amaliy va ijtimoiy sohalarida ham sezilarli siljishlarga olib kelmoqda. Yoshlarning siyosiy tizimdagi o'рни tobora mustahkamlanib, ular jamiyatda faol siyosiy rol o'ynovchi kuchga aylanish yo'lida harakat qilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, Yangi O'zbekistonda demokratiya tamoyillarining chuqurlashuvi va siyosiy barqarorlikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Siyosiy plyuralizmni huquqiy, institutsional va madaniy jihatdan chuqurlashtirish esa – yoshlar siyosatini samarali amalga oshirish, ularni siyosiy hayotga to'liq integratsiya qilish va demokratik rivojlanishni strategik bosqichga olib chiqish uchun zaruriy shartdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. UNESCO. *Youth and Political Participation: Emerging Trends*. – Paris: UNESCO Publishing, 2021. – 32 p. // URL: <https://unesdoc.unesco.org>
2. Dahl R.A. *Polyarchy: Participation and Opposition*. – New Haven: Yale University Press, 1971. – 250 p.
3. O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi. – T.: Adolat, 2019. – 96 b. // URL: <https://lex.uz/docs/4381267>

4. Dahl R. A. Polyarchy: Participation and Opposition. – New Haven: Yale University Press, 1971. – 250 p.
5. Локк Дж. Два трактата о правлении / Пер. с англ. – М.: Мысль, 1988. – 412 с.
6. Мэдисон Дж. Федералист. №10 // Федералист: Сб. статей / Пер. с англ. – М.: Наука, 1995. – С. 73–81.
7. O'zbekiston Respublikasi "Yoshlar siyosati to'g'risida"gi Qonuni. Qabul qilingan sana: 14.09.2016 // URL: <https://lex.uz/docs/3013188>
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi. 2024-yilgi parlament saylovlari yakunlari // URL: <https://elections.uz>
9. Inter-Parliamentary Union. Youth Participation in National Parliaments: 2022 Report. – Geneva: IPU, 2022. – 36 p.
10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi. 2021-yilgi Prezident saylovlari bo'yicha yakuniy hisobot. – Toshkent, 2022. – 24 b. // URL: <https://elections.uz>
11. OSCE/ODIHR. Republic of Uzbekistan Presidential Election – 24 October 2021. Election Observation Mission Final Report. – Warsaw: OSCE/ODIHR, 2021. – 28 p.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. 2021–2025-yillarda yoshlar siyosatini rivojlantirish strategiyasi. – Toshkent, 2021. // URL: <https://lex.uz/docs/5463830>
13. Sunrise Movement. About Us // URL: <https://www.sunrisemovement.org>
14. Liberal Party of Canada. Youth Engagement Strategy. – Ottawa: Liberal Party, 2019. – 12 p. // URL: <https://liberal.ca>
15. The Government of Finland. Prime Minister Sanna Marin's Profile // URL: <https://valtioneuvosto.fi/en>
16. International IDEA. Youth Participation and Political Leadership. – Stockholm: International IDEA, 2022. – 44 p. // URL: <https://www.idea.int/publications>
17. O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi. 25.06.2019-yilda qabul qilingan. – T.: Adolat, 2019. – 96 b.
18. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi. 2021-yilgi Prezident saylovlari yakunlari to'g'risida axborot. – T.: MSK, 2022. – 24 b. // URL: <https://elections.uz>
19. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti to'g'risidagi nizom. – T.: 2020 // URL: <https://parliament.gov.uz>
20. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. "Yoshlar – kelajagimiz" dasturi. – T.: 2018 // URL: <https://lex.uz/docs/3744146>